XXV bob. Prokuratura**143-modda.**

O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

144-modda.

Prokuratura organlarning yagona markazlashtirilgan tizining O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oly vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati – besh yil.

Ayni bir shaxs surunksiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori lavozimini egallashi mumkin emas.

145-modda.

O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o'z vakolatlarini boshqa davlat organlari, o'zga tashkilotlardan, mansabdar shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlarga bo'ysunang holda amalga oshiradi.

Prokurorlar o'z vakolatlarini davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

146-modda.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshio shurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalar mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'limalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqilangan.

Qonuniylii va huquqiy taribotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar-jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

XXVI bob. Moliya, pul va bank tizimi**147-modda.**

O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega.

148-modda.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti respublika budgetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetidan va mahalliy budgetlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini shakllantirish hamda iro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar va fuqarolik jamiyatini instituti O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining shakllantirilishi hamda iro etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyatini instituti larining budget jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi.

149-modda.

O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilinadi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining Oly Majlisiga tegishlidir.

150-modda.

O'zbekiston Respublikasi pul birligi so'mdir. So'm O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona cheklanmagan qonuniy to'lov vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasining hududida qonuniy to'lov vositalari sifatida pul belgilari muomalaga kiritishda va ularni muomaladan chiqarishda mutlaq huquqqa egadir.

151-modda.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishtirok chiqadi hamda amalga oshiradi.



Kattaqo'rg'ondag'i ishlari qachon yakunlanadi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Shundan 14 milliard 639 million so'mdan ortiq mablag' ichki yo'llarini ta'mirlash, 400 million so'm elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash uchun yo'naltirish, 22 ta mahalla aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun 29 milliard 155 million so'm mablag' sarflanadi. Qarorda belgilanganidek, pudratchi tashkilotlar "Shaffor qurilish" milliy axborot tizimi orqali o'tkazilgan tenderda aniqlangan va 22 ta mahalladan 18 tasi ni ichimlik suvi bilan ta'minlash g'olibligini bitta korxona qo'lga kiritgan. Toza ichimlik suvi kelishi xabarini eshitgan aholi boshida xursand bo'lgan, ammo qish bo'yini kovlab tashlangan yo'llarda harakatlanish noqslay bo'imoda.

- Mahallamiz aholisi 20 metrgacha bo'lgan yer osti suvini qo'lba usuldagagi pishma kranlarni yordamida olib iste'mol qiladi, - deydi tumandagi Tarnov mahallasi raisi Nurali Rajabov. - Afsuski, suv tarkibida ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan hasharotlar va salomatlikka salbiy ta'sir qiluvchi boshqa moddalar bo'lganligi uchun viloyat sanitariya xizmati tomonidan bu suv iste'molga yaroqsiz deb topilan. Ammo boshqa qo'loj yo'qligidan shu suvni qaynatib iste'mol qilardik. Prezident qarori qabul qilinib, mahallamiz dasturga kiritilganda, birinchini navbatda toza ichimlik suvi keltirilishi tarafdir bo'dik. Mahallamizga 7,5 kilometr ichimlik suvi tarmog'i tortish va 1 ta yangi suv inshooti qurish belgilandi. Tanlovda g'olib bo'lgan korxona 2022 yilning 20 dekabrda ishni boshladi, ammo hamma joyni kovlab tashlab, quvur yotqizish ishlari kechikdi. Qish kunlarida bu odamlarning ishga, o'qishga borishlari, yo'da harakatlanishida anchra qiyinchilik tug'dirdi. Kunlar isishi bilan yana ishlari boshlandi. Hozir transformator keldi, elektr energiyasi tarmog'i tortildi, 6,5 kilometr ichimlik suvi tarmog'i tortildi, aholiga tarmog tortish ishlari endi boshlanadi. Dasturga asosan, ichki yo'llarni asfaltlash ham belgilangan, lekin kovlash va tarmog tortish ishlari yakunlangandan keyin yo'l asfalt qilin ekan.

Tumandagi mahallalarda eng og'ir masalardan biri aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hisoblanadi. Tuman markazidann olisa joylashgan aholi punktlaridan markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash rejalashtirilgandi, ammo ishlari haligacha yakunlangani yo'q.

- Ishni 2022-yil 20-dekabrda boshlaganmiz va 102,5 kilometr ichimlik

suvi tarmog'i tortish vazifasini olganimiz, - deydi "OQDARYO BUNYODKOR QURUVCHI SERVIS" mas'uliysi cheklangan jamiyatni rahbari Avaz Murodullayev. - Texnikadan unumli foydalanan maqsadida quvur yotqizish uchun xandaqlarni kovalb chiqidik. Rejaga asosan buyurtma qilingan qurvuni keltirib, asosiy tarmoq tortish ishlari Navro'z bayramigacha yakunlash rejalashtirilgandi. Ammo joriy yil yanvar oyidagi anomal sovuq tufayli ishlari kechikdi, qolaversa, Jizzax viloyatidan keltiriladigan polietilen quvurlarda ham biroz uzilish bo'ldi. Hozir rejadagi 10 ta suv minorasi keltirilib, 5 ta suv inshooti o'rnatalib, asosiy va aholiga tarmoq tortish ishlari 70-80 foizga bajarlidi. Hozir suv hisoblagich o'rnatalish ishlari boshlanmoqda. Belgilangan vazifani aprel oyida yakunlab, xonadonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash niyatidamiz.

Tumanda elektr energiyasi yaxshilash bo'yicha Qirg'iz mahallasida 2 ta transformator, 76 ta temir-beton ustunlar o'rnatilib, 2 kilometr tarmoq tortilgan. Ya'ni, bu boradagi belgilangan vazifa bajarilgan, ammo ichimlik suvi va yo'l qurilishida ogosqoliklar bor.

- Tumandagi 18 ta mahallada ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash loylarini "OQDARYO BUNYODKOR QURUVCHI SERVIS" mas'uliysi cheklangan jamiyat yutib olgan, - deydi Kattaqo'rg'on tuman hokimligi bosh mutaxassis Bekzod Normurodov. - Yuqorida aytilgan 18 ta mahallada 81 kilometrdan ortiq quvur yotqizish uchun xandaqlar kavlangan, katta qismiga quvur tashlangan va yana keltirilmoqda. Hozirgacha 97 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, dastur asosida qo'shimcha 45 ming aholining suv ta'minoti yaxshiladi. Natijada tuman aholisining qariyb 50 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. 9 ta mahallada 28,5 kilometr ichki yo'ni ta'mirlash tanlovida "NEW TECH SAMARKAND" mas'uliysi cheklangan jamiyat qo'lib bo'lgan. Jamiyat tomonidan Vayrot, Jumaboy, Moybulloq, Andoqsoy mahallalarida 11 kilometrdan ortiq yo'ni ta'mirlash ishlari to'liq yaxshiladi. Buningdek, Buxondor mahallasida 2,5 kilometr yo'lda asos ishlari amalga oshirilmoqda. Kumushqirg'oq, Yangiqiyot, Omonboyko'pri, Jizmonsoy mahallalarida 14 kilometredan ortiq yo'ni ta'mirlash ishlari endi boshlanmoqda. Yo'ni ta'mirlash ishlarining kechishi asosan suv tarmog'i o'tkazishga bog'liq. Suv tarmoqlari tortish ishlari yakunlangach, yo'llarni asfaltlashga kirishiladi.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Fazliddin RO'ZIBOYEV (surat).**

"NURONIY" JAMG'ARMASIGA DAVLAT SUBSIDIYASI

ajratish tizimi joriy etiladi

Keyingi yillarda yoshlar tarbiyasi, oilaviy munosabatlarda nuroniylarning tajribasidan unumli foydalishan o'z samsarasi beryapti. Davlatimiz rahbarining joriy yil 11-mart kuni "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shishcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga bu ishlarni yanada keng targ'ib qilish va tizimli tashkil etishga qaratilgani bilan ahamiyatl bo'ldi.

- Prezidentimiz tomonidan imzolangan ushbu qaror mamlakatimizda keksa avlod vakillariga bo'lgan alohida e'tiborning yana bir yorqin ifodasidir, - deydi viloyat Nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi Shuhrat Negmatov. - E'tiborli, ushbu qaror bilan joriy yil 1-apreldan boshlab "Nuroniy" jamg'amasiga davlat subsidiyasi ajratish tizimi joriy etiladi. Endilikda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili hamda "Nuroniy har bir oilaga mas'ul" loyihasi asosida faoliyat olib borgan va ibjobji natijalarga erishgan nuroniylar "Nuroniy" jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlanirib boriladi.

Shuningdek, qaror asosida korxona va tashkilotlardagi "Faxriylar kengashlari", fuqarolari yig'inalridagi "Keksalar maslahati" guruhlarining faoliyati kuchaytirilib, yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitilgan holda izchil davom ettiriladi. "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyiliq muvofigi, yoshlar har bir mahalladagi faol nuroniylarga, "Nuroniy har bir oilaga mas'ul" loyihasi asosida muammoli oilalarning har biriga "Keksalar maslahati" guruhlarining bir nafardon a'zosi birkirtiladi. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhlari rahbarlari har chorakda bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida rag'batlaniriladi.

"Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili asosida yoshlarni to'g'ri yo'la boshlash, ularda kasb-hunar, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda nuroniylarning o'gtillari qo'l kelmoga. Xususan, o'tgan 2022-yil viloyatimizda 1728 nafar nuroniy 15922 nafar tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhajo, uyushmagan va ihsiz yoshlarning

15210 nafarinan muammolarini ijobiy hal etdi. Ajralish yoqasidagi oillarini yarashtirish, aka-uka, qarindosh-urug'lar orasidagi ginalarni bartaraf qilishda yoshi ulug' insonorlari alohida jonbozlik ko'rsatayti. Ularning sa'y-harakatlar bilan 316 ta notinch, ajralish yoqasidagi oila yarashtirildi.

Albatta, keksalarning imkoniyatlardan umumli foydalish bilan birga, ularning maroqli hordiq chiqarishi, sog'lig'i tilkash, moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirish ham'e'tiborda. O'tgan yil 28476 nafar nuroniylar Toshkent, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga sayohatga olib borildi. Qolaversa, 5491 nafar ijtimoiy himoya muhajo keksalar, jumladan, 290 nafar yakka-yolg'iz yashaydigan nuroniylar sanatoriylarda sog'lomlashtirildi, 140 ming 534 nafar keksa avlod vakilli bepul bibray ko'rikdan o'tkazildi. Bayramlarda ularning holdan xabar olinadi. Kerakli tibbiy yordamlar uchun imkoniyatlardan yaratiladi. Ta'kidlash lozimki, insonga e'tibor eng avvalo, nuroniylarga ko'sratilayotgan g'amxo'rlikda o'z aksini topyapti.

Qarorda belgilanganidek, joriy yilda keksa avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni sog'lomlashtirish, bo'sh vaqtinari mazmunli o'tkazish, ijtimoiy hayotdagi faoliyotlari oshirish borasidagi ishlar salmog'i yanada ortadi.

S.MARDIYEV.

Uyingizga quyosh paneli o'rnatdingizmi?

Prezidentimzing "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Kattaqo'rg'on tumanida jami quvvati 220 MWt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish rejalashtirilgan. Yil yakuniga qadar birinch bosqichda 100 MWt ishga tushiriladi.

Viloyat hokimligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yil boshidan buyon 403 ta ijtimoiy soha ob'yeqtida 6,35 MWt quvvatl quyosh panelari va 12 ming litr quyosh suv isitish uskulalari o'rnatilgan. Tadbirkorlarning bina va inshootlarida 1,81 MWt, ko'p qavatl uylarda 20 kWt va aholi xonadonlarda 3,41 MWt quyosh panelari ishga tushirildi. Shuningdek, xonadonlarda 4,4 ming litr hajmdagi quyosh suv isitish uskulalari o'rnatilishi ta'minlandi. 2023-yil yakuniga qadar quvvati 2,4 MWt bo'lgan ikkita kichik gidroelektr stansiyasi ishlaydi.

Shuningdek, Samarcand shahrida 124 ta, Bulung'ur tumanida 22 ta, Oqdaryoda 27 ta, Payariqda 33 ta, Paxtachi tumanida esa 35 ta ijtimoiy soha ob'yeqtariga quyosh panelari o'rnatildi.

Shuningdek, Samarcand shahrida 11 nafr tadbirkor o'z bino va inshootlariga quyosh panelari o'rnatgan bo'lsa, Narpayda 11 nafr, Nuroboda 10 nafr hamda Urgut tumanida 6 nafr tadbirkor xuddi shunday qurilmalardan foydalana boshladi. Ammo Toyloq tumanida 13 ta quyosh panelari o'rnatilishi kerak bo'lgan holda bugungi kungacha birorta ham tadbirkor energiya tejovchi uskulalaridan foydalangan yo'q. Bu ko'sratik Kattaqo'rg'on



va Past Darg'om tumanida 6 foiz, Oqdaryoda esa 4 foizni tashkil qilmoqda.

Viloyatimizda aholi xonadonlarda kichik quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatishorasida ham ishlar qoniqarli emas. Bu ko'rsatkich Samarcand shahrida 202 ta, Narpay tumanida 125 ta, Payariqda 66 ta aholi xonadonlari ga quyosh panelari o'rnatilgan bo'lsa, Bulung'ur tumanida 9,9 foiz, Nuroboda 9,8 foiz, Ishtixonda 8,9 foizga bajarilgan, xolos.

Prezident qaroriga ko'ra, joriy yilda foydalishiga topshiriladigan ko'p qavatl uylariga qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Bu yil viloyatda yangi 16 ta ko'p qavatl uya quyosh panelari o'rnatish rejalashtirilgan. Hozirgacha faqat Samarcand shahridagi bitta ko'p kvartirli uy-joyining tominga quyosh panelari o'rnatildi. Shuningdek, Narpay, Urgut, Oqdaryo tumanlarida qurilishi davom etayotgan ko'p qavatl uylarga ham qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'rnatildi.

Elektr energiyasini tejash maqsadida 166 ta

ob'yeqt, shundan, 75 ta maktabgacha ta'lim, 69 ta maktab hamda 22 ta sog'lioniq saqlash muassasining issiqlik ta'minoti ko'mirga moslashtirildi. Joriy yilning I choragiда 300 ta, I yarim yillikda 523 ta ob'yeqtida ishlar to'liq yakunlandi. 19 ta issiqxonada, 2 ta g'ishti va 5 ta ohak ishlab chiqaruvchi korxona ko'mirga o'tkazildi. Birinchi yarim yillikda 56 ta, yil yakuniga qadar esa 150 ta ob'yektida ishlar to'liq yakunlandi.

Darg'om kanalining Urgut, Toyloq, Samarcand hamda Past Darg'om tumanlari hududidan oqib o'tuvchi qismida 16 ta kichik gidroelektr stansiyalari quriladi. 10,9 MWt quvvatga ega bo'lgan mazkur stansiyalarning ikkitasi yil yakuniga qadar ishga tushirilsa, qolganlari 2024-yil dekabr oyidan boshlab elektr energiyasi bera boshlaydi.

Mazkr ishlar amalga oshirilgach, elektr tarmoqlaridagi texnologik yo'qotishlari yil yakuniga qadar 2,5 foizga qisqartirib, 100,9 million kWt soat elektr energiya tejadaladi.

D.O'TAMURODOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lонlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jodayev Farrux Farxonovich notarial idorasida marhum Nurmatov Uljaboy Bozorovichga (2021-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-“B” uy.

Toyoq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Alovidдин G'iyosiddin (G'iyosiddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyoq tumanı Toyoq shaharchasi.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Xodijimatov Djuraboyga (1994-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrov-

na notarial idorasida marhum Salomov Buriga (2010-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Halilov Mirziyoga (2020-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Mamontova Tatyana Aleksandrovna (

Joriy yilning fevral oyida xonadonbay o'rganish asosida aholini qiyab kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish, aholi bilan muloqotning yangicha tizimini yo'iga qo'yish bo'yicha Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida joriy qilingan tajriba Ishtixon tumanida qo'llanildi.

172 MAHALLADA ISHTIXON NAMUNASI

ASOSIDA ISH OLIB BORILMOQDA

Tumandagi 62 ta mahallada 44 ming 393 ta xonadon, 443 ta ijtimoiy va boshqa ob'ektlar o'rganildi. Natijada 10338 ta muammoli masala aniqlanib, 7462 tasi joyida hal etildi. Qolgan masalalarga ham respublika ishchisi gurhi boshchiligidagi mutasaddi tashkilotlar tomonidan yechim topilmoqda.

Jumladan, qisqa vaqt ichida tumandagi 91,7 kilometr ichki yo'llar shag'allashirildi, 2 kilometr yo'ga asfalt yotqizildi. 5 ta gaz taqsimlash punkti joriy ta'mirlandi, 64 mingdagi ortiq gaz ballon almashtirildi, ehtiyojidan oilalarga 400 ga yaqin yangi gaz ballon yetkazib berildi.

Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 12 ta yangi transformator o'rnatildi, 32 tasi ta'mirlandi, 474 dona beton ustunlar qo'yildi va 13,2 kilometr yangi elektr kabeli tortildi.

Mazkur jarayonda ishsiz aholining bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi uchun 258 nafar fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, 249 nafari kasb-hunarga yo'naltirildi, 218 nafari o'zini o'zi band qilishi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tkazildi. 90 nafar ishsizlarga 623 million so'mlik asbob-uskunalar berildi. 235 nafar fuqaro 6,2 milliard so'm imtirozli kredit, 266 nafar talabaga 2,3 milliard so'm ta'limga krediti ajratildi.

Bundan tashqari, ta'lim, tibbiyat, tadbirdorlik bo'yicha ham aholi roziligi qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi.

"Oqqo'rg'on tajribasi" Ishtixonida o'z samarasini bergach, viloyatning boshqa hududlarida aholi muammolari bilan ishlashda ham shu tarza faoliyat olib borish belgilandi.

Shu yilning 20-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi G.Mirzayev hamda viloyat hokimi E.Turdimov ishtirokida Ishtixon tumanida aholi muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni bartara etish borasidagi ishlar tahlili etilganda viloyatning boshqa shahar va tumanlaridagi 172 ta mahallada



Ishtixon namunasi asosida fuqarolar tomorqalaridan unumli foydalinish, sanitariya holatini yaxshilash va mahalla hududini obodonlashtirishga ko'maklashishga qaror qilindi.

Shundan so'ng hokimliklar va sektorlar mas'ullari, mutasaddi tashkilotlar bilan birga bu vazifalar ijrosiga

Bugun amalga oshirilayotgan obodonchilik ishlari ko'zni quvnata-di. Ravon asfalt yo'llar, veloyo'lak-lar bilan bir qatorda e'tibordan chetda qolayotgan, qishda loy, yozda esa chang yo'llar kishi ta'bini xira qiladi.

- Har yili sentabr oyida tuman avtomobil yo'llaridan foydalinish korxonasi yo'lsozlari qishlog'i imiz ko'chalarini tekislab asfalt yotqizamiz, deya va'dani quyud berib ketishadi, - deydi Jonboy tumani Quramo'yin mahallasida yashovchi Shahzodek Suvonov. - Afuski, bu gaplar va'daligicha qolmoqda. Bu va'daboz yo'chlarni kim so'roqlab, tartibga chaqiradi?

Bulung'ur tumanidagi Bulung'ur va Iстиqlol mahallalarini kesib o'tqan, Oqtепta va Spita-men ko'chalarini bog'lovchi Azlarbulog' ko'chasi tuman rahbarlarini e'tiboridan chetda qolganiga ancha bo'ldi. Qishda loy, yurish qiyin bo'lgan bu ko'chadan yuzlab o'quvchilar 22-umumoti'lim maktabiga, futbol stadioniga, bolalar va o'smirlar sport maktabiga qatnashadi. Qanchadan-qancha avtomashinalar o'ydim-chuqurlarga tushaverib,

kirishilib, ayni vaqtga qadar 172 mahalladagi 7913 nafar ishsiz fuqarolardan 2695 nafarining bandligi ta'minlan-di. 134 oilaning uy-joyi ta'mirga muhitojligi aniqlanib, ularga ham amaliy yordam ko'rsatildi. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi va tibbiyot birlashmalari tomoni dan mahallalarda ko'riklar tashkil ettili, 11 ming nafarga yaqin fuqaro tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ko'riklar natijasiga ko'ra, aniqlangan xastaliklarni davolash uchun 1293 kishiga shifoxonalarga yo'llanma berildi, 39 nafar bermorda jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Shuningdek, 58 nafar fuqaroga nogironlik aravachasi, 35 kishiga protez-ortopediya vositalari hamda 1926 nafar bermorga bepul dori-darmon tarqatildi.



Mahallalardagi shu paytgacha tuproq yo'l bo'lgan ichki yo'llarning 191 kilometr qismi shag'allashirildi. 26 kilometr yo'ga asfalt qoplamasi yotqizildi. Bugun eng dolzarb masala bo'lgan aholining elektr ta'minoti bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida 175 ta transformator ta'mirlanib, 689 ta yangi temir-beton ustunlar o'rnatildi.

Bundan tashqari, 172 mahallada kechayotgan obodonlashtirish ishlari davomida shu paytgacha 57 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi, ariqlar tozalandi. Xonadolalar atrofidagi 409 ta noqonunu qurilmalar buzildi.

Misol uchun, viloyatning Qo'shabot tumanidagi Shavona, Mayintepa, Sorgigul, Toz singari 9 mahallasida o'rganish va amaliy ishlar davomida 416 nafar fuqaroning ishsizligi aniqlandi. Hozirgacha ulardan 15 nafarining bandligi ta'minlandi. Uy-joya muhajo, o'ta og'ir sharoitda yashayotgan 9 nafar fuqaroning turar joyi ta'mirlanmoqda. Mahalalar hududida 800 tuf daraxt ko'chatlari o'tqazildi. 150 ga yaqin tomorrowqa ishlov berilib, aholiga sabzavot urug'lari va ko'chatlar tarkatildi.

Shu kabi ishlar Toyloq tumanidagi 18 ta, Paxtachidagi 16 ta, Samarqand shahridagi 15 ta, Nuroboddagi 12 ta va boshqa tumanlardagi mahallalarda amalga oshirilmoqda.

**M.TURDIYEV,
viloyat Xalq qabulxonasi mudiri.**

OYDN EMAS, LOY KO'CHALAR



ta'mortalab bo'lib qolgan. Qisqasi, bu yo'l yoqasida yashayotgan ayrim xonardon egalari lotoklarini bekitib olishgan. Yog'ingarchilik vaqtida ariq va lotoklar yo'qligi sababli yo'ldan oqayotgan suv bir-ikkita hovliga kirib, devorlari darz ketidi. Ayniqsa, Spitamen ko'chasidan oqib kelayotgan bir ariq suv to'g'ri hovilarga kirib ketmoqda.

- Ushbu holat yuzasidan arz qilib, bir necha bor tuman hokimligiga bordimi, - deydi Azlarbulog' ko'chasi yashovchi Tursun bobo. - O'rinnbosar-

lari "Hokimga aytilib o'tirmang, hammasini o'zimiz qilamiz. Siz boravinger, yarim soatda yetib boramiz", deganlariga bugun rosa besh oy bo'ldi.

Payarig' tumani hududidagi Juvozxona - Oqchelak - Ko'rmulla qishloqlari oralig'idagi yo'llarning o'nqir-cho'nqirligi o'n yillardan buyon muammo bo'lib kelmoqda. Paxtakor - Dehqonobod - Darvozagaza aholi punktlari o'tasidagi asfalt yo'llarning ayrim joyalariga 25-30 santimetrik chuqurlar paydo bo'lgan.

Chelak shaharchasidagi ayrim yo'l va ko'chalar ham achinarli holatga kelib qolgan. Mirzo Ulug'bek, Toshkovuz mahallalaridan o'tsangiz, bunga ham o'zingiz guyov bo'lasiz.

- Mahallamizing Mustaqillik, Kattatepa ko'chalarida paydo bo'lgan o'ydim-chuqurlar nafaqat avtomobil harakatiga, balki piyodalarning o'tishiga ham xalaqit bermoqda, - deydi Ulug'bek mahallasi yashovchi Husan Egamov. - Ichki ko'chalar haqida aytilib o'tir-

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2023-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxtagi olinagan. Nashr 100. Indeks 438. 17 640 nusxada chop etildi. Buyurtma 145. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshnabi, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursun ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Odatda tahririyatimizga "Mahallamizga bir kelib keting", deb murojaat qiluvchilar hudu-didagi muammollar hamda mas'ullarning e'tiborsizligidan shikoyat qilishadi. Biroq bu gal barchasi boshqacha bo'idi. Mahallasiqa taklif qilganlar arz-dodiga emas, quvonchiga sherik bo'lismizni so'rashdi.

Toqloq tumanidagi Nayman mahallasi da 3800 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Asosan dehqonchilik hamda ko'chatchilik bilan shug'ullanuvchi bu insonlar bugungi hayotidan mammun. Holbuki, bundan ikki yilcha oldin vaziyat butunlay boshqacha edi. Ko'chalar ta'mir-talab, ijtimoiy infratuzilma rivojlanmagani, bir nechta qishloqni mahalla bilan bog'lab turuvchi ko'priklar hamda bolalar bog'chasining avariya holatidaligi aholining kayfiyatida ham aks etayotgandi.

— Shunday vaziyatda tashabbusni biz nuroniyalar o'z qo'limizga olishga qaror qildik, - deydi 74 yoshli Mavlon Davronov. - O'zaro kengashib, mahalla hudu-dini obodonlashtirishga ahd qildik. Obod joyda baraka bo'ladi, deb bejiz aytish-magan, axir. Xolis niyat bilan boshlagan ishimiz samarasini berib, muammolari-miz ham birin-ketin hal bo'la boshladimi. Bugungi sharoitimiz "Obod mahalla" dasturiga kiritilganlarnikidan yomon emas.

Nuroniyalar bizni mahalla hududidan oqib o'tuvchi Darg'om kanali bo'yiga boshlab borishdi. Kanal ustida yangi ko'priklar yotqizildi. Buzga tushuntirishlari, uning o'rnda hashar yo'lli bilan qurilgan ekan. Avariya holatidagi ko'priklar har kuni yuzlab odamlar, maktab o'quvchilar o'tib-qaytgan. Mahalla faollaringin mas'ul-larga qilgan qator murojaatlardan so'ng masala nazoratga olinib, uning o'rnda yangi, asosisi, mustahkam ko'priq qurib berilgan.

— Ko'priniking narigi tomonidagi Childir qishlog'ida yashayman, - deydi Nasiba Norqulova. - Yoz kunlari bir amallarmiz, lekin qishning sovug'i, bahor va kuzning yog'ingarchiliklarida kanaldan o'tish

azobga aylanlar edi. Eski, nuragan ko'priklar o'tish uchun ham tuproq, ba'zida loy kechib borardik. Yangi ko'priq qurilgach, birato'la ko'chalarimiz ham asfalt qilib, piyodalar yo'lakchasi qurib berishdi. Yo'l bo'yab tungi yoritikchilar o'natildi.

— Mahallaning transformatsiyasi ayni shu nuqtadan boshlandi, - deydi Mavlon Davronov. - Yangilanish kayfiyatini aholini ham harakatga, ya'ni yashash manzili ni obod qilishga undaldi. Kimdir uyini oqladi, boshqasi ariq kovaldi. Shunday qilib, hududimiz kun sayin ko'rkmashib bormoqda. Biz ham to'xtab qolganimiz yo'q. Yopilish arafasida bo'igan eski masjid o'rniда yangi, 3,5 ming namozxonni sig dira oladigan masjid qurishni boshladik. Sektor rahbarlarining sayyor qabulidagi murojaatimizdan so'ng mahalladagi 1-DMTTning xaroba binosi o'rni da zamonaviy, 180 o'rni bog'cha qurib berilgan.

Bog'cha mudirasi Shahnoza Abdunaimovning aytishicha, eski bog'cha 1936-yilda qurilgan maktab binosida bo'lgan. Unda na bolalarning ovqatlanishi, na o'yashi va na dam olishi uchun sharoit bo'igan. Yangi binoda zamon talabiga mos qulayliklar bor. Ayni vaqtida unda 36 nafar mahalla xotin-qizining bandligi ta'minlangan.

Shu davrgacha "Nayman" mahalla fuqarolar yig'ining o'z binosi bo'lmagan ekan. Ular goh muktabda, goh do'konda, goh mahalla raisining xonadonida ishlab kelgan. Mahalla faollaringin sa'y-harakati bilan bu muammoga ham yechim topildi. Hozir ular namunaviy mahalla markazida ishlaydi.

Nayman mahallasida amalga oshirilayotgan bonyodkorlik va obodonlashtirish ishlari haqida yana uzoq gapirish mumkin. Masalaning muhim jihat shundayki, bu yerda ko'rganlarimiz biror hududni obod qilish uchun dasturni kutib o'tirish shart emasligining amaliy isbot bo'ldi. Mas'ullardan talab qilinadigan - ozgina e'tibor. Shu e'tibor xalqni harakatga, bунyodkorlikka undaydi.

Asqar BAROTOV.

manfaatlarini ko'zlab sudlarga 3070 ta ariza, tegishli organlarga 1376 ta ma'muriy, 16 ta jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar kiritilgan.

Natijada davlat organlari va tashkilotlarining 2099 nafar xodimiga intizomiy jazo chorasi qo'llanildi. Xususan, 46 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 1354 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka, 2 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilib, 24792 ta noqununiy hujjalarni bekor qilindi va to'xtatildi.

Asosiy, jismoniy va yuridik shaxslarga 102 milliard 969 million 405 ming 864 so'm mablag' undirib berildi.

"Urgut" El'za faoliyat yurituvchi "Bekmiz carpet" MChJning murojaatiga asosan kiritilgan da'veo ariza Samarqand tumanlararo ma'muriy sudingin 2022-yil 26-avgustdagagi qarori bilan qanoatlanitilib, davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 13-iyundagi qarori haqiqiy emas deb topildi va MChJga nisbatan 5 milliard so'mga yaqin asossiz hisoblangan soliq majburiyat bekor qilindi.


Viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati.

mayin, yo'lsolar tomonidan asfaltlash ishlari chala bajarliganligi sababli yo'laklarda tosh-shag'al, tuproq uyumlari to'planib qolgan. Talab qilsangiz, va'da berishdan nariga o'tishmaydi. Shaharchadagi 78-umumta'l'm maktabi yonida chuqurlarda yomg'ir yoqqaq vaqtarda paydo bo'lgan ko'lmaklar yo'lovchi va haydovchilariga noqlaylik tug'diradi. Ba'zida kelib, mayda chuqurlarni yamab ketgani bilan ish bitmasligi aniq. Ko'chamiz faqat maxsus texnikalarda tekis-lasagina, tartibga keladi.

Bugungi kunda viloyatimizda shahar va tumanlarning ichki yo'llarida bu kabi salbiy holatlarni ko'rish mumkin. Endi kunlar isib, bahona qiladigan, yolg'on va'dalar beradigan vaqt o'tdi. Yo'lsozlarimiz tuproq ko'chalarini tosh-shag'al bilan, tosh-to'kilganlarini esa asfalt yoki beton quyish orqali ta'mirlasalar, yaxshi bo'lardi. Shahar va tuman hokimliklari, tuman obodonlashtirish va viloyat avtomobil yo'llari boshqarmasi hududiy bo'limlari mutasaddilari ushbu holatlariga jiddiy e'tibor qaratadi, deb o'yalmiz.

**Dilmurod TO'XTAYEV,
Tolib JO'RAYEV,
Turg'unboy HASANOV.**

Navbatchi muharrir: A.SHERZOLOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling